

Guliston davlat pedagogika instituti, “Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik” kafedrasи dotsenti, (PhD) Saidkulov Nuriddin Akramkulovich taqrizi ostida

Tashmetova Gulnoza Sadriddinovna
Guliston davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi
Telefon raqami: +998949197888
gulnoza@gmail.com

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI - YANGI O‘ZBEKISTONNING ASOSI

ANNOTATSIYA: Bugungi taraqqiyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hech bir soha dogma bo‘lib bir tizimni qattiq ushlab shu orqali rivojlanishga erishishi mumkin emas. Chunki, kechagi bilimlar bugun eskilikka qiylanib qolayotganligi uni zamonaviy ko‘rinishda va usulda olib borishni taqazo etmoqda. Maqola tarbiyaning zamonaviy usullari taklif etilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, ma’naviy tarbiya, elektron tarbiya, axloqiy tarbiya resurslari, elektron tarbiya resurslari.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ – ОСНОВА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: Сегодняшнее развитие показывает, что ни одна область не может достичь развития, строго придерживаясь системы как догмы. Поскольку вчерашние знания сегодня устаревают, необходимо нести их в современной форме и методе. Статья значима тем, что предлагает современные методы обучения.

Ключевые слова: Третье Возрождение, духовное образование, электронное образование, ресурсы нравственного воспитания, ресурсы электронного образования.

STATE POLICY REGARDING YOUTH IS THE BASIS OF THE NEW UZBEKISTAN

Annotation: Today's development shows that no field can achieve development by strictly holding a system as a dogma. Because yesterday's knowledge is becoming obsolete today, it is necessary to carry it in a modern form and method. The article is significant because it offers modern methods of education.

Keywords: Third Renaissance, spiritual education, e-education, moral education resources, e-education resources.

O‘zbekiston taraqqiyot sari qadam qo‘yayotgan bugungi kunda, jamiyatning har bir soha bo‘yicha islohotlar tizimini amalga oshirishga, dastlabki masala sifatida qaralmoqda. Shundan kelib chiqib, taraqqiyotga xizmat qiluvchi, strategiya va dasturlar qabul qilinishi bilan islohotlarning aniq maqsadlari, bajarilish muddatlari, amalga oshirish mexanizmlari, mas’ul ijrochilar belgilanib berilganligi voqelikning ijobiy jihatni sifatida baholashning imkonini beradi. Mamlakat taraqqiyotini baholash uchun, rivojlanish o‘sib borgani sari muammolarning ham yiriklashib borayotganligi va ularning bartaraf etilish mexanizmlari murakkablashib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi lokomativi sifati qaralishi kerak bo‘lgan yoshlar qatlami mamlakatimiz siyosatining asosi bo‘lib xizmat qilishi zarur. Shu sababdan, 2016 yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi imzolagan qonun hujjatida bu sohadagi amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar belgilab olindi va shu bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Qonunda yoshlarga oid amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan siyosatning asosiy prinsiplari, ular o‘zlarini namoyon etishi mumkin bo‘lgan

asosiy yo‘nalishlarning belgilanganligi [1], bugungi kungacha amaliy faoliyatda shu sohalar birlamchi jihat sifatida qaralib kelinayotganligini ko‘rish mumkin.

Keyingi katta qadam sifatida qayd etiluvchi hujjat, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham yoshlarga oid siyosatni tartibga solish bo‘yicha bir nechta ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o‘rtalik maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish[2]. Belgilangan yo‘nalishlarning asosiy ijobiy jihat shundan iboratki, unda yoshlarga nisbatan faqat qaysidir talablarni qo‘yib ulardan natija kutishdan ko‘ra, ularga o‘z istedod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib berish islohatlardan asosiy ko‘zlangan maqsad ekanligi bu ijobiy jihat hisoblanadi.

Keyingi imkoniyat sifatida, 2018 yil 27 iyunda “Yoshlar-kelajagimiz Davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni bilan “Yoshlar- kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil etildi. Ushbu jamg‘arma yoshlarning biznes tashabbuslari, g‘oya va loyihamonlari amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kreditlar ajratish yo‘lga qo‘yildi. Bugun jamiyatda shakllanib kelayotgan yoshlar qatlami tashabbuskorlikka, ijodkorlikka, biznes yoki ilmiy loyihamonlari amalga oshirishga intiluvchan ekanligini hisobga olgan holda, ularni qo‘llab-quvvatlash, g‘oyalarini amalga oshirish uchun moddiy va texnik yordam mexanizmi taklif etilishi belgilandi. Ularning loyihamonlari amalga oshirish uchun, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer ajratish tizimi ham joriy etildi. 2018-yildan boshlab hududlarda 25 ta “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazi va 157 ta “Yoshlar mehnat guzari” kompleksi faoliyat boshladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ‘ib qilish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g‘oyani amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida “5 tashabbus loyiha ofisi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tegishli loyihamonlari, jumladan, “Sport karvoni”, “Bir million dasturchi”, “Eng yaxshi kitobxon oila” kabi loyihamonlari amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan yigit-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi. O‘tgan vaqt davomida 113 nafar yosh “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan,

75 nafari esa “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi.

Qilinayotgan barcha islohotlarda yoshlar kamol topishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning asosida mamlakat yoshlarining dunyo bilan bo‘ylashadigan ya’ni raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishib chiqishlari

uchun imkon bermoqda. Yoshlarga jahon andozalari darajasida ta’lim berish, jamiyatdan munosib o’rin egallashiga ko’maklashish masalasi davlat siyosatining mihim yo’nalishiga aylandi.

Davlatimiz yoshlarga oid davlat siyosatida aniq maqsadlarni ko’zlab, bosqichma- bosqich shakllanib kelmoqda. Yoshlarni qo’llab-quvvatlash uchun ular o’rtasida kitobxonlik, tadbirkorlik, tasabbuskorlik jihatlarni kamol toptirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtboshimiz g’oyasi asosida “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” tizimi joriy etilib, unga qamrab olingan aholi qatlami, mamlakatning ijtimoiy himoya tamoyilini amalga oshirilishidagi asosiy jihat sifatida qarab kelinmoqda.

Ushbu islohatlarning ifodasi sifatida ham Guliston davlat pedagogika institutida ham o‘quv yili boshida belgilab olingan reja asosida o’tkazib kelinayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ham talabalarning ishtirokida yangicha ruh va ko’tarinki kayfiyatning mavjudligi, islohatlarning amalda ko’zlangan natijalarini taqdim etayotganligini ko’rsatib beradi.

Mamlakatdagi bu jabhadagi islohatlar faqat shu hudud yoshlari hayotida o’zgarish yasash bilan birga, davlatning chaqirig‘ini xalqaro miqyosda aytlishiga ham imkoniyat bermoqda. Mamlakatning qarashlari faqat ichki muammolar yuzasidan emas, mintaqa va global miqyos ham kasb etayotganligini kuzatish mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida belgilangan maqsadlarning dastlakilari ham ta’lim tizimidagi islohotlar ekanligi hamda 4-qismidagi Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo’nalishlaridagi islohotlar ham mamlakatni tom manoda taraqqiy etgan dunyo mamlakatlari qatoriga kirishdagi qadamlar sifatida ko‘rish imkonini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat o‘zining taraqqiyot yo‘lini qidirishda jamiyat ma’lum qismiga tayanadi. O‘zbekiston uchun esa ayni o‘sha tayanch nuqtasi, bu yoshlar qatlami hisoblanganligi uchun ham bu boradagi islohotlarning mazmundorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning samarasi tezlikda namoyon bo‘lmasada, ko’zlangan natijalar kelajakda o‘zini ko’rsatishi tabiiy. Shu sababdan yoshlarning ham faoliyati shulardan kelib chiqib, aniq maqsadlar, loyihibar, dasturlar ko‘rinishida bo‘lishi va ular ishlay boshlashi zarur, shunda hozircha g’oya shaklidagi Yangi O‘zbekiston barpo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
2. <https://lex.uz/acts/-3107036>
3. Akbarjonovich M. A. AN ANALYTICAL APPROACH TO THE ELIMINATION OF CORRUPTION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 2045-2047.
4. Sadriddinovna T. G. KELAJAK KADRLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TARBIYA RESURSLARINING AHAMIYATI //IQRO. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 750-753.
5. Sadriddinovna T. G. TALABALARNING TA’LIMDAGI MUVAFFAQIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 11. – №. 2. – C. 144-147.

6. Sadriddinovna T. G. EDUCATION AND EDUCATION IS THE BASIS OF THE THIRD RENAISSANCE //PEDAGOOGS jurnali. – 2023. – T. 35. – №. 2. – C. 162-165.
7. MANSUROV A. DEVELOPMENT STAGES OF MIGRATION FROM A HISTORICAL POINT OF VIEW //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 108-111.
8. Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich. (2023). Migration is a Necessary Process under Globalization. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 3(12), 37–39.